

ONA TILI FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna

BuxDU tadqiqotchisi

barnoyevazarina072@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5631-1156>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, mavzuni o'zlashtirish darajasini oshirish. O'quvchilarning darsdagi qiziqishlari qarab har xil metodlarni qo'llash hamda ta'lim samaradorligini oshirish. Muammoli o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirish haqida ham bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, axborot, texnologiya, yangi pedagogik texnologiyalar, internet, elektron pochta, kompyuter, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способы повышения эффективности образования с использованием передовых педагогических технологий. Использование новых педагогических технологий в преподавании родного языка и литературоведения, повышение уровня владения предметом. Исходя из интересов учащихся на уроке рассматривалось использование различных методов и повышение эффективности обучения. Также обсуждались проблемное обучение, технологии, развивающие критическое мышление, осознанное и прочное усвоение знаний, активизация познавательной деятельности учащихся в определении их активного отношения к окружающему.

Ключевые слова: Образование, информация, технологии, новые педагогические технологии, Интернет, электронная почта, компьютер, национальная программа подготовки кадров.

Abstract: This article discusses how to increase the effectiveness of education using advanced pedagogical technologies. Using new pedagogical technologies in the teaching of native language and literary sciences, increasing the level of mastery of the subject. Based on the interests of the students in the lesson, the use of various methods and the improvement of educational efficiency were considered. Problem-based teaching, technologies that develop critical thinking, conscious and solid assimilation of knowledge, revitalization of students' cognitive activity in determining their active attitude to the environment were also discussed.

Key words: Education, information, technology, new pedagogical technologies, Internet, e-mail, computer, national personnel training program.

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptomlar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarning tatbiq etish bilan bog'liq.

Bugungi kunda davlatimiz milliy kadrlarni tayyorlashda ulkan e'tibor bermoqda. Ilm fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatiga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng sharoit yaratib berilmoqda.

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirgi inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, "texnos" - san'at, mahorat, "logos" ta'li-mot degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. Oliy o'quv yurtida ta'limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O'qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini ta'minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo'lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funktsiyalari, o'qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

O'qitish texnologiyasini belgilash – bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta'limiy va takomillashish samarasini ta'minlovchi o'quv jarayonini me'yoriy boshqarib turishdir. Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar:

- ✓ muammoli o'qitish;
- ✓ o'yinli texnologiyalar;
- ✓ tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar;
- ✓ o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi;
- ✓ programmashtirilgan o'qitish texnologiyasi;
- ✓ kompyuter axborot texnologiyasi.

Muammoli o'qitish:

Muammoli o'qitish bu takomillashtirilgan o'qitish texnologiyasidir.

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin:

muammoli vaziyat → o'quv muammosi → o'quv muammosini yechish uchun izlanish → muammoning yechilishi. Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni yoki yechimni berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi. Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish,

qonuniyatlarni shakllantirish, qoʻlga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tadbiq etishga intiladi.

Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni taʼminlovchi, shu jumladan, mobil telefonlar soni Internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Taʼlim sifatini, maʼnaviy-gʻoyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish soʻzsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Taʼlim tizimini ragʻbatlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib boʻlmaydi. Taʼlim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat boʻlishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun taʼlim tizimi dinamik, mukammal boʻlishi kerak. Gumanitar taʼlim tizimi — bu shaxsiy fikrlashini qayta anglab yetish, yangi oʻquv dasturlarini ishlab chiqish, doimiy fikr almashish doimiy jarayonidir. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari oʻzgarmoqda hamda bu quyidagi yoʻnalishlarda sodir boʻlmoqda: birinchidan, yuksak raqobatchilik hukm surishi bilan ajralib turadigan zamonaviy global bozorda koʻnikmalar har qachongidan ham katta ahamiyatga ega. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish juda murakkab jarayon. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatliligini tan olinishini aks ettiruvchi yangi global normalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega boʻlmoqda. Deyarli barcha mamlakatlar tomonidan maqullangan yangi qoidalari intellektual xususiylikni himoya qilish rejimlarini barcha yerda kuchaytirmoqda. Uchinchidan, butun dunyoda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik loyihalashtirish sektorida xususiy sektor yetakchi rol oʻynaydi. Bu sektorda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur moliyaviy mablagʻlar, bilimlar va kadrlar katta qismi jamlangan. Toʻrtinchidan, eng yuksak malakali texnik mutaxassislarni ish bilan taʼminlovchi global mehnat bozori shakllanadi. Beshinchidan, yangi kompaniyalar, ilmiy-tadqiqotchilik laboratoriyalari va moliyalashtiruvchilar hamda korporasiyalar yangi texnologiyalar ishlab chiqarish global markazlariga birlashmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilgʻor pedagogik texnologiyalaridan foydalanish taʼlim samaradorligini oshiradi. Ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mavzuni oʻzlashtirish darajasini oshiradi. Oʻquvchilarning darsdagi qiziqishlari qarab har xil metodlarni qoʻllash mumkin. Muammoli oʻqitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan unumli foydalanish, bilimlarni ongli va mustahkam oʻzlashtirish, atrof-muhitga oʻzining faol munosabatini belgilab olishda talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

1. J.Gʻ Yoʻldoshev, S.A. Usmonov “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish”. “Fan va texnologiya”. Toshkent 2008.

2. M.Ochilov “Yangi pedagogik texnologiyalar”. Qarshi “Nasaf”- 2000.
3. N. Sayidahmedov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” Toshkent “Oliy pedagogika instituti” 2003.

